

ABDULLA AVLONIY IJODIDA SAYOHATNING O‘RNI

Akbar Nurmatov f.f.n., dots.

O‘zJOKU dekani,

Yirik pedagog, taniqli ma'rifatparvar, serqirra adib, publitsist va muharrir Abdulla Avloniy XX asr birinchi choragida O‘zbekiston (1924 yilgacha Turkiston) ijtimoiy-madaniy hayotida sezilarli rol o‘ynagan siymolardan biridir. U 1978 yilning 12 iyulida Toshkentning Mergancha mahallasida dunyoga kelgan. Abdulla 7 yoshga to‘lgach otasi uni O‘qchidagi Akramxon domla maktabiga beradi. U keyinchalik Shayhontohurdagi Abdumalikboy madrasasida ham tahsil oladi. Abdulla Avloniy siyosiy ongining shakllanishida XX asr boshlaridagi yirik siyosiy-ijtimoiy voqyealar muhim omil bo‘ldi. Maslakdoshlari singari Avloniy ham mahalliy aholi zamonaviy ilm-ma'rifatni egallash yo‘li bilangina milliy zulmdan qutulib, ozodlikka, istiqlolga erishadi deb o‘yladi. Shu bois uning publitsistikasida, xususan sayohatnomalarida ma'rifatparvarlik, yuksak axloqiy g‘oyalarni targ‘ib qilish xususiyatlari yetakchilik qildi. Abdulla Avloniyning sayohatga bag‘ishlangan ikkita maqolasi: “O‘z shahrimga sayohat” va “Afg‘on sayohati” mavjud. Shu yerda biz “Sayohatnoma” janri haqida bir oz to‘xtalib o‘tsak.

“Sayohat” – adabiyot va madaniyat, inson va insoniyat o‘z-o‘zini anglashning eng qadimiy shakllaridan biri hisoblanadi. O‘zini inson sifatida anglagan vaqtdan boshlab xomo sapiens “yaxshi hayot” ilinjida u hududdan bu hududga ko‘chib yurgan. Davlatlarning tashkil topishi va shaharlarning taraqqiyotiga qarab odamlar yangi hududlarni bosib olish yoki tinch yo‘l bilan, ya'ni u yerga oldindan ayg‘oqchilarni – ko‘pincha buning uchun savdogar, dengizchi va shunchaki joyini o‘zgartirishni xohlagan sayohatchilarni yuborishgan. “Sayohat” davomida ular milliy o‘zligini anglab yetganlar, “begona”dan “o‘zi”ni farqlay boshlashgan. Adabiyotshunos va madaniyatshunos U.A. Stetsenko o‘zining “Safarda yozilgan tarix” nomli tadqiqotida ta'kidlaganidek: “Barcha mif, afsona va xalq og‘zaki ijodi namunalari asosida safar mavzusi yotadi”.¹ Asta-sekinlik bilan “sayohatlar”da milliy o‘ziga xoslik, vatanparvarlik konsepsiyasi shakllana boshladi. “Begona” va “o‘ziniki”, o‘zga yurt va ona vatanini qiyoslayotgan va solishtirayotgan sayohatchi ulardagi va o‘zidagi yaxshi va yomon, umumiy va xususiy jihatlarini farqlashni o‘rgana boshlagan. Amerikalik madaniyatshunos olim Mak Kennen iborasi bilan aytganda, sayohatning asosiy maqsadi “boshqa makon va zamon, begona yurt, tarix, madaniyatdan o‘z-o‘zini izlash va

¹ Стеценко Е.А. История, написанная в пути. Записки и книги путешествий в американской литературе XVII - XIX вв.). Рязань. М. Наследие 1996г.

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOY-SIYOSIY MASALALARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

o‘zligini anglash”.² Shu tarzda safarnomalardan sayohatchilar - “his-tuyg‘ular” bilan boyitilgan qahramon-hikoyachi ishtirokidagi yo‘l ocherklarining o‘ziga xos shakli yetishib chiqdi. Sayohatchining o‘ziga xos bo‘lgan sub'ektivizm va ob'ektivizm o‘quvchini dunyoga boshqacha qarashga majbur qiladi, boshqa mamlakatlar hayotini o‘zining hayoti bilan solishtirish imkonini beradi, “o‘zligi”ni yaxshiroq va chuqurroq anglashga yordam beradi. Jurnalistikada sayohatnomalar ommaviy auditoriya tomonidan hozirgi kunda ham juda iliqlik bilan kutib olinmoqda. Sayohatlar haqidagi matnlarga o‘zbek auditoriyasining qiziqishining turli sabablari bor, albatta. Avvalo, azaldan o‘zbek kitobxonlarining sayohatchilarning turli xotira va o‘z ko‘zlari bilan ko‘rgan voqeya-hodisalar haqidagi hikoyalari katta qiziqish bilan o‘qib kelganlar. Bularga Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshg‘ariy, Ali Qo‘shchi, Abdurazzoq Samarqandiy, Zahiriddin Bobur, Muhammad Haydar, Ahmad Donish, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Mannon Romiz, N. Yovushev va boshqalarning safarnomalarini misol sifatida keltirishimiz mumkin.

Insonning tabiiy ehtiyojlari qatorida ma'naviy ehtiyoji ham doimo yonma-yon turadi. Ovqat yeyish, kiyim kiyish, uxlash, umuman harakat qilish qanchalik muhim bo‘lsa, shu jarayonda insonning o‘zini o‘rab turgan olamni bilishga qiziqish ham ortib boraveradi. Buning uchun kitob o‘qiydi, muloqot qiladi, boshqa faoliyat turlarini o‘rganadi, atrofni kuzatadi. Shu ma'noda ma'naviy ehtiyojlarning ichida o‘zi yashab turgan hududdan (qishloq, shahar, mamlakatdan) tashqarini ko‘rishga bo‘lgan ishtiyoq insonning ongli hayotining ajralmas qismiga aylanadi. Bolalikda o‘zi ko‘rgan tog‘ning ortida nima borligi, dalalar, poyonsiz kengliklarning chegarasi qaerdaligi, daryoning qaerdan boshlanishi va va qaerda tugashini bilishga qiziqmagan bola bo‘lmasa kerak. Shundanmi, yo‘lga, safarga bo‘lgan ishtiyoq hamisha inosonni yangi manzillar sari chorlayveradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Abdulla Avloniy “O‘z shahrimga sayohat” maqolasida sayohat haqida quyidagi g‘aroyib bir fikrni ilgari suradi: “Ko‘ramanki, ba'zi odamlar sayohat qiladilar. Jarida va jurnallarga qilgan sayohatlarini, ko‘rgan-kechirganlarini oqizmay-tomizmay, ignasidan ifigacha yozadirlar. Man ularning yozganlarini ko‘rub, achchig‘im chiqub aytur edimki, “sayohat” nima degan gap, mundan nima ma'no chiqar?” deb.³ O‘ylab ko‘rsam deb davom etadi muallif, bundan foydali ishlar ham bor ekan, bir kishi sayohatga chiqib, o‘zga bir viloyatga borsa, u yerdagi insonlarning turmushidan, ilm va ma'riftidan, hunar va san'atidan, til va adabiyotidan, sha'ni va shavkatidan, qadr-qiymatidan, savdo va tijoratidan xabardor bo‘larkan deydi. Abdulla Avloniy sayohatga chiqishni xohlaydi, lekin bir tomondan

² Mac Cannen D. Tourist. A new theory of leisure class. - N.Y., 1976. - 217 p

³ Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 2 жилдлик, 2- жилд. 2-нашри. Тошкент “Маънавият” 2006. 229-б.

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOY-SIYOSIY MASALALARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

bunga yo‘qchilik xalaqit bersa, ikkinchi tomondan homiylarning topilmasligidan noliydi. Shuning uchun chet ellarga sayohatga chiqishga biron-bir homiy yoki o‘zimda imkoniyat bulgunga qadar o‘z shahrimni aylanib turay deydi. Avval shaharning rasta va bozorlaridagi uchrab turadigan (afsuski bunday voqyealar hozir ham tez-tez o‘chraydi) bir-biri bilan yoqalashib, mushtlashib ketganligini tasvirlaydi. Madrasalarda o‘qitishni hali ham eskicha tartibda olib borilayotganini achchiq tanqid qiladi. Keyingi sahnalarida boylarning ziqnaligi, zamonaviy iqtisodiy qoida va munosabatlarga beparvo qarashlari oqibatida huda-behuda moddiy zarar ko‘rishlari mushohada etiladi. Ro‘za va zakot borasidagi ularning hiyla va firibgarliklarini fosh etadi. Maqola shaharning tabiati va hayvonoti haqidagi fikrlari bilan yakunlanadi.

Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, atoqli olim B.Do‘stqoraevning ta'kidlashicha Abdulla Avloniyning “Afg‘on sayohati” sarlavhali safarnomasi, aniqrog‘i kundaliklari o‘z davrida nashr qilinmay qolgan.⁴ “1978 yilda Avloniy tavalludining yuz yilligi munosabati bilan shoirning shaxsiy arxivini ko‘zdan kechirar ekanmiz, Afg‘oniston safari kundaliklariga duch kelib qoldik, deydi professor Begali Qosimov. Abdulla Avloniy respublika partiya va hukumatining topshirig‘i bilan 1919 yilda RSFSR tashqi ishlar xalq komissariatining vakili N.Z. Brovinga muovin tayinlanib, Afg‘onistonga borgan. O‘sha yili sentyabrda afg‘on hukumati bilan olib borilgan muzokaralarning barchasida ishtirok etgan”.⁵ Ushbu asar orqali Abdulla Avloniyning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini belgilashda, sho‘rolar hokimiyatiga bo‘lgan munosabatini oydinlashtirib olishimiz mumkin.

Mashhur sayohatchi, Afrika tadqiqotchisi Devid Livingiston «Sayohat qilish uni tavsiflashdan ko‘ra ancha osonroq»⁶ degan edi. Safarnomaning asosiy belgilaridan biri – bu tasvirlarning izchil va ketma-ket kelishidir. Abdulla Avloniy qishloqdan qishloqqa, shahardan shaharga, mamlakatdan mamlakatga qilgan sayohatini bosqichma-bosqich faktlar va taassurotlari bilan boyitib boradi. Safar davomida uchragan yo siz to‘qnash kelgan reallikning barcha murakkab muammolari quyiladi va ularni hal etish yo‘llari ta'kidlab o‘tiladi. Abdulla Avloniy Havos stansiyasini shunday tasvirlaydi: “Yo‘llarda bo‘(l)sun, istansalarda bo‘(l)sun, yalang‘och, avrotlari ochuq, kiyimlari pora-pora musulmon xotun-qizlari, yosh-yosh bolalar ko‘rilurdi. Albatta, ilmsiz va tarbiyatsiz, ahvoli olamdan xabarsiz musulmonlarning hol-ahvollari birgina O‘rta Osiyo yo‘linda emas, butun Turkistonning hamma o‘lkasinda sho‘yla fano va ayanch holda ekanlig‘in

⁴ Дўстқораев Б. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. Тошкент – 2009.

⁵ Қосимов Б. Миллий уйғониш. Тошкент “Маънавият” -2002 й.

⁶ Ливингстон Д. Путешествия и исследования в Южной Африке с 1840 по 1855 г/Давид Ливингстон. М.: Географгиз, 1955. — 392 с.

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOY-SIYOSIY MASALALARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

hyech kim inkor qilmaydi... Bizim Turkistonda har yerda hozirda ish boshinda o‘lturgon rus tovarishlarimizning o‘zlari ish boshiga o‘lturub olub, o‘zlari oshalab, biz musulmonlarga yalatuvarlarining natijasidir”.⁷ Bu tasvirlarning xarakterli joyi shundaki, birinchidan muallif ko‘rgan-kechirganlarini xolis va haqqoniy tasvirlagan, ikkinchidan esa sho‘rolar hokimiyati o‘rnatilgandan keyin ham shovinistik hovuri bosilmagan rusiyabon amaldorlarning hamon mahalliy aholiga nisbatan oshkora bo‘lmasa-da, mustabidona munosabatda bo‘layotganlarini, og‘izda boshqayu, amalda boshqa faoliyat olib borayotganlarini faktlar (yuqoridagi misolda ko‘rsatilganidek) vositasida ochib tashlagan. Hay‘at ketayotgan poezd Samarqandga yaqin joyda ikki soatcha turib qoladi. Shunda qizil askarlarning hamda poez haydovchi ruslarning mahalliy aholiga nisbatan qilgan zo‘ravonlik, talonchilik harakatlarini ochiq tasvirlaydi. Bu kabi manzaralar mustabidlik tuzumining hali tuzalib ulgurmagan yaralari edi. Hatto Kogonga yetganlarida yopiq majlis qilganlari “... bu majlisda hal qilingan masalalarni(ng) ochiq yozmoq mumkin emasdir” deya bir ijodkor sifatida ochiq haqiqatni yozgan edi.

Avloniy sayohat davomida rus bolshovoylarining haqiqiy basharasini asta-sekinlik bilan, epizoddan-epizodgacha bo‘lgan sahnalarda o‘ta xolis tarzda ochib boradi. Masalan ular Kogonda bo‘lishganda ruslar uch turk muallimining qamab qo‘yilganini eshitib, vaqti yo‘qlig‘iga qaramasdan ularni qo‘tqarish uchun Kogon prezidenti Pechenikufg‘a, Kazakufg‘a uchrashgani, “Onlardan olg‘on javobim “Bu ish osobiy otdelni(ng) ishi, bizlar qo‘ldan kelguncha harakat qilub, bu(n)laring ishlarin tez ko‘rilub, tamom qilinmog‘iga harakat qilurmiz. Siz xotirjam bo‘lingiz!” – deya meni quruq so‘z ila qanoatlantirdilar” deb nochorlikdan ularning so‘ziga yupanub darhol yo‘lga chiqib ketganini aytadi.

Ushbu safar davomida Avloniyning bolsheviklar hukumatiga bo‘lgan shubhasini kuchaytirib yubordi. “Afg‘on sayohati”ning bir nechta joyida real epizodlar orqali ularning makkorligi, ikkiyuzlamachiligini ko‘rsatib bergan. Delegatsiya nihoyatda eski paroxodga o‘tirib Chorjo‘ydan Karkiga tomon yo‘l olishadi. Lekin ular yerli xalq, nihoyatda jasur va g‘ayur, tutgan joyini kesadigan turkmanlar oldidan o‘tishi kerak bo‘ladi. Eng xavfli joyga kelishganda o‘rtoq Ivanuf va Brovinlar (RSFSRning Afg‘onistonga yuborgan hay‘ati vakolasi boshlig‘i) Abdulla Avloniyini o‘sha jangari turkmanlar bilan muzokaralar olib borishga jo‘natadi. Turkmanlarga qarata Abdulla Avloniy: “Bizlar sizlarga mehmonmiz. Daryo uzoridan Karkig‘a borub, uradan Afg‘onistonga o‘tub ketamiz. Balki sizning askarlaringiz bizlar kimlar ekanlig‘imizni(ng) bilmasdan, balki bizlarni(ng) dushman hisoblab, otish ochgandirlar?

⁷ Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 2 жилдлик, 2- жилд. 2-нашри. Тошкент “Маънавият” 2006. 238-б.

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOY-SIYOSIY MASALALARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Turkman beklaridan biri: - **Bolam, siz bilganni(ng) biz ham bilamiz. Bizlar ruslar ila qirq yildan beri yashab, do‘st kelduk. Ammo shul kunlarda oromiz buzuldi. Karkida ruslar bizlarga ko‘b jabru zulmlar qildilar, bir necha beklarimizni tutub o‘ldirdilar. Uylarimizni yondirdilar. Bola-chaqamizni o‘ldirmoqdan toymadilar. Bizlar insoniyat nuqtai nazaridan bunday xurlikg‘a chidashga toqatimiz qolmadi Hukumatg‘a qarshi qiyom qilmoqg‘a majbur bo‘lduk. Yo najot, yo o‘lim deya ishga kirishdik. Yo ishimizni(ng) o‘ng‘arub olamiz, yo barimiz qirilub bitamiz”**.⁸ Bu gaplarni Brovin janoblariga aytishganda ular masxaraomuz shunday deyishdan o‘zlarini tiyisholmagan: “Turkmanlarda nima quvvat bor deysiz. Qars-qurs besh-o‘n o‘q otgan ila bo‘ldi-qo‘ydimi? Nariroq borib to‘pdan, pulemyotdan, bo‘mbamyotdan, miltiqdanbir otash (o‘t) ochsak, turkmanlar o‘zlari qochurg‘a joy topolmay qoladirlar”. Shunday kayfiyatda kemada yo‘lga tushishgach, kemani turkmanlar shunday o‘qqa tutishganki, hay‘at a‘zolari sog‘-omon qolganlariga shukr qilishib orqasiga qaytishga majbur bo‘lganlar(otishma paytida kemadigilardan bir qancha kishi halok bo‘ladi, yaradorlar ham talayginani tashkil etadi. O‘zlarini sotsialist va kambag‘alparvarimiz deb jar solgan rus bolsheviklarining sobiq chor generallaridan ham o‘tib tushganligini ushbu lavhada A. Avloniy yaqqol tasvirlab bera olgan. Ba‘zi bir lavhlarda esa delegatsiya boshlig‘i Brovinning ikkiyuzlamachi, surbet va makkor odam ekanligi chizib beriladi. “Oh, na insoniyat, na barobarlik, na sotsialistlik, na millat tafriq qilmaydirg‘on internatsionalistlar dunyo yuzinda topilarmukin? – Balki bordur, topilur, lekin vujudi anqoning tuxumidek kamyob ekanlig‘in Afg‘oniston safariga chiqg‘onda aniq bildim. Afg‘onistong‘a chiqg‘on besh hay‘ati vakolaning ichida birgina musulmon man o‘ldig‘imdan har bir og‘ir mehnatlar, har bir kulfat va aziyatlar meni ustimg‘a yuklandi...”⁹ deb yozadi Abdulla Avloniy. Ichi qora tovarishlarimiz, tovarishlarning shovinizmi kabi iboralar bilan ularni siylaydi. “Marhabo, ey hurriyat, sendan muruvvat ko‘rmadim” deb bolsheviklardan butkul umidini uzadi.

Hirot shahriga yetguncha ko‘p qishloq va shaharchalar orasidan o‘tishlariga to‘g‘ri keladi. Avloniy u yerda ko‘rgan-kechirgan narsalarini doimo Turkiston bilan solishtirib boradi. Masalan: “Bura (Hirot)ning aholisining bir qismi ekinchilik ila qolganlari ayog‘lik mol-chorbochilik ila kasbi maishat qilurlar. Tog‘larning ustlarida, adirlarida o‘tlab yurg‘on teva, ot, qoramol, qo‘y, echkular har odimda ko‘zga to‘da-to‘da uchrardi. Hozirda Turkistonda ayog‘lik mollarning urug‘i qurug‘onlikdan bir necha yildan beri bo‘yla podalarni(ng) ko‘rmagonlig‘imizdan, jin ko‘ziga childirma ko‘ring‘onidek, bizim ko‘zimizga bir turli bo‘lib ko‘rinur edi. Ixtiyorsiz, “Oh!..

⁸ Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 2 жилдлик, 2- жилд. 2-нашри. Тошкент “Маънавият” 2006. 242-б.

⁹ Ўша ерда. 278–б.

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOY-SIYOSIY MASALALARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Turkiston! Bu Uvrupo qonxo‘rlarining olamso‘z, otashfishon jahon muhorabalari natijasida na hola kelding?!” – deya xo‘rsunib-xo‘rsunub qo‘yardik”.¹⁰ Keyingi sahifalarda Avloniy shu darajada berilib Afg‘onistonning harbiy kuchlari haqida gapiradiki, unda qancha askardan tortib qancha qurol-yarog‘i borligiyu qancha maosh olishi va qanday kiyim-kechak bilan ta‘minlanishigacha sanab o‘tadi. “Umuman afg‘on xalqi jangjo‘y, urushqoq bir xalq o‘ldig‘indin ahlining yaroq-aslahasizi yo‘q hukmindadur. Miltiq, taponcha olmoqg‘a kuchi yetmaganlarining qilich, shof va xanjarlari bordur. Bularga qodir bo‘lmaganlarining qo‘llarida oybolta yoki shashvar, juda yo‘qlarining qo‘llarida “marhabo tayoq”lari bordur” – deya ta‘riflaydi Avloniy.

Muallif ko‘rganlarini boshdan to oxirigacha tasvirlaydi, shu jumladan portret lavhani ham; ularda qahramonlar xarakteri, harakat qilayotgan joydagi holatlari hikoya qilib beriladi. Kiyinishlarida yevropacha liboslar odat tusiga kirayotganini aytadi. Yaxshi va ijobiy tomonlarini ko‘rsa ularni bizga ibrat qilib ko‘rsatadi, yomon tomonlarini ko‘rsa hayron qolduk deb taajjublanadi. Safar davomida Avloniy mazasi qochib qolgani uchun afg‘onlarning “Taxti ravon” ga tushub yurmoqg‘a majbur o‘ldim, deydi. “Bu afg‘onlarning taxti ravon ismli arobalari Turkistonning ko‘tarado‘rg‘on anbarlarini o‘zg‘inasidir”. Unga o‘tirg‘animga tavba va tazarru qilib yana ot minib yurishga majbur bo‘ldim deydi.

Sayohatning so‘nggi sahifalarida Afg‘on hukumati va Amiri Omonullaxon bilan olib borilgan muzokaralarga to‘xtaladi. Uchrashuvdan so‘ng amir Omonullaxon Brovinga qarata “Ertan man faqat musulmonlar ila ko‘rishajakman, chunki sizing ila birga kelmish musulmonlar faqat bugun ikigina kishi kelmish, saboh hammasini banim huzurima ko‘ndirmalisiz” deydi. Amir Omonullaxonning bu taxlit munosabati albatta ruslarga yoqmaydi. Ayniqsa “Afg‘on tufrog‘iga o‘tgandan so‘ng o‘zini(ng) jenerol chor noil e‘lon qilmish etgan” Brovindek soxta bolshevikka mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi. Shuning uchun ham u turli yo‘llar bilan Avloniyga nisbatan haqorat va nayranglar qilishga harakat qiladi. Avloniy “O‘rtoq Brovin menga qarab, bir necha kalima og‘ir so‘zlarni(ng)da so‘ylab oldi. Holbuki man Toshkandan chiqq‘ondan bu ona qadar hyech kima malol keladurg‘on so‘z-da so‘ylamamish, og‘ir keladurg‘on ishda qilmamish edim. Lekin ish esa, “Holvani(ng) hakim yer, kaltakni(ng) yetim yer” qabilinda edi”¹¹ - deb aytadi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Avloniyning “Afg‘on sayohati” asari muayyan tarixiy va ma‘rifiy ahamiyatga ega. Undan narsa va hodisalarning go‘zal tasvirlari, ruhiy-

¹⁰ Ўша ерда. 256-б.

¹¹ Ўша ерда. 279-б

psixologik parchalar, ora-sira nazmlar ham o‘rin olgan. Bu esa sayohatning shunchaki xronikal xarakterda emas, balki belletrestik(badiiy) asarga yaqin bo‘lishini ta‘minlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. 2-nashri. Toshkent “Ma‘naviyat” 2006.
2. Tog‘aev O. Publitsistika janrlari. O‘qituvchi. T.: 1976.
3. Stetsenko ye.A. Istoriya, napisannaya v puti. Zapiski i knigi puteshestviy v amerikanskoy literature XVII - XIX vv.). Ryazan. M. Nasledie 1996g.
4. Mac Cannen D. Tourist. A new theory of leisure class. - N.Y., 1976.
5. Do‘stqoraev B. O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2009.
6. Ingeborg Baldauf. XX asr o‘zbek adabiyotiga chizgilar. Toshkent. «Ma‘naviyat”. 2001.
7. Qosimov B. Milliy uyg‘onish. Toshkent “Ma‘naviyat” -2002 y.
8. Livingston D. Puteshestviya i issledovaniya v Yujnoy Afrike s 1840 po 1855 g/David Livingston. M.: Geografiz, 1955. — 392 s.